

MUSIQA SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA JADIDCHILIK G'OYALARINING O'RNI FIKRLARI

Bozorova Feruza

Termiz tumani 13 sonli bolalar musiqa
va sa'nat maktabi 2 toifali o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati va san'atining jadidlar ma'rifiy uyg'onish davridagi holati va rivojlanish bosqichlari ilmiy-tarixiy manbalarning qisqacha tahlili va umumiy xulosalar asosida tavsiflangan. Mazkur davrdagi madaniy-ma'rifiy muhit xarakterlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jadid madaniyati, musiqa san'ati, g'oyaviy qarashlar, musiqiy teatr, badiiy fil, manbalar.

KIRISH

O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik katta ishlarni bajardi.¹

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq musiqa madaniyatining shakllanish beshiklaridan biri hisoblanadi. Biroq, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, ayniqsa, totalitar tuzum hukmronligi sharoitida musiqa madaniyati rivojlanishning ziddiyatli holatlarini boshidan o'tkazdi. Mustamlakachilik davrida Turkiston mintaqasi bir tomondan milliy zulm ostida qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bir necha asrlar davomida jahon tamadduni taraqqiyotidan uzilib qolgan o'lka yana dunyoga yuz burdi. Bu davrda Turkistonga ko'plab Yevropa madaniyati yutuqlari kirib kelgan bo'lsa, ayni paytda Yevropaga ham turkistonliklarning musiqa madaniyati javohirlari tarqala boshladi. Jumladan, 1905 yilda Mulla To'ychi Toshmammedov Moskva va Riga shaharlariga safar qilib, uning ijrosidagi "Ilg'or", "Yangi Kurd", "Eshvoy", "Suvora" kabi 20 dan ortiq qo'shiqlar grammafona plastinkalariga yozib olingan va yevropalik sharq musiqasi shinafandalariga tarqatilgan edi.² Uning xizmatlari o'laroq Turkistonning bir qancha shaharlarida grammafona plastinkalar sotuvchi do'konlar tashkil etildi. 1909 yili Xo'jand maqom maktabining zabardast hofizlaridan, betakror xonanda va bastakor, o'zining "ishkami" usuldagi ovozi bilan Buxoro amiri saroyida ham mashhur bo'lgan Sodirxon hofiz tomonidan ijro etilgan ko'pgina ashulalar Angliyaning "Pishushiy Amur" grammafona firmasi tomonidan yozib olinib dunyoga tarqalib ketgandi²⁰⁵ *. Shuningdek, Buxoro shahrida Amir hofizlari yig'ini — "rikob" raisi bo'lgan "Shashmaqom" bilimdoni Ota Jalol Nosirov va Samarqandda uning shogirdi Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1855-1936)sh lar ijod qilgan. Hoji Abdulaziz nafaqat "Shashmaqom" bilimdoni, balki, "Xorazm san'atini bir usta vositasida urganchlik Yoqub Dorchidan, Farg'ona yo'llarini Ashurali Mahramdan ta'lim olgan"³ va milliy san'atkor darajasiga erishgan kishi edi. Ularning sharofati bilan keyinroq "O'zbek musiqasi", "O'zbek

¹ Baxtiyor Hasanov "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent2016.3-b

² Yazdanov U. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini rivojlantirish masalalari.- T.: Nishon-noshir, 2015.- B.3.

³ B.Xasanov. N.Karimov. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. "Toshkent islom unversiteti" Toshkent 2016.

va boshqa Sharq xalqlari musiqa madaniyati haqida”, “Tojik musiqasi”, “Fargʻona, Buxoro va Xiva qoʻshiqlari” kabi yirik asarlar dunyo yuzini koʻrdi.⁴

Oʻtgan asrning boshlaridagi oʻzbek taraqqiyparvar ziyolilarining koʻzga koʻringan vakillari Fitrat, Choʻlpon, Sadridin Ayniy, Gʻulom Zafariy, Hamza, Muhiddin Qori Yoqubov kabi mashhur shoir, yozuvchi, pedagog-maʼrifatparvarlarning qator maqolalari va risolalarida ularning oʻzbek mumtoz musiqa madaniyati, ayniqsa, milliy musiqa merosiga munosabatlari oʻz ifodasini topgan.

Fitratning ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo musiqa ilmining tarkibiy tuzilishi, fan predmeti, tadqiq usullari mufassal yoritib berilgan edi²⁰⁴. Gʻulom Zafariy ijodiy merosining ham asosiy qismi oʻzbek milliy musiqasi va uning tarixi tadqiqiga bagʻishlanadi²¹⁰. Sadridin Ayniy oʻz maqolalarida Ota Jalol, Ota Gʻiyos, Qori Kamol, Qori Najm, Miratojon tanburnavoz — “Tillanoxun”larning oʻzbek, tojik musiqa madaniyati taraqqiyotiga qoʻshgan cheksiz hissalarini taʼriflab oʻtgan edi. Eng ahamiyatli tomoni “Chigʻatoy gurungi”ning faollaridan, “Koʻmak” jamiyati aʼzosi Sayid Ali Usmonxoʻjayev oʻzbek milliy musiqa merosini asrab qolish masalasini birinchilardan boʻlib ilgari surgandi. U oʻzining “Endigisini qoʻldan bermaylik” maqolasida: “Hozir Toshkentda Turkiston musiqasiga butun vujudi bilan berilgan musiqa professori Uspenskiy bor. Bu oʻzida boʻlgan iqtidorini, ilm oʻqib yetishtirgan butun kuchini Turkiston musiqasiga bergan. Toʻgʻrisini aytganda, bu kishi Turkiston musiqasining majnuni. Uspenskiy fransuzlar ruhida musiqiy shoiri (kompozitor) boʻlsa ham Turkiston musiqiyisi uchun mana shu isteʼdodini yoʻqotdi. Musiqashunoslarcha aytganda yerga koʻmdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Natijada xalqdan olqish emas soʻkinish eshitilmoqda. Bu esa faqat artistlarning emas, yozuvchilarning ham xalq hayoti, turmush madaniyati, orzu istaklaridan naqadar uzoqligini anglatadi. Xalqimiz hozirgi davrda sanʼatni, ayniqsa, Yevropa sanʼatini xohlamaydir. Nima uchun “Halima” va “Yorqinoy” mashhur boʻlib ketdi. Undagi xalq hayotidan olingan sahnalar, tanish qahramonlar muxlisni sahnaga tortmoqda. Bugun Shekspir, Gogol asarlari ham emas koʻproq xalq uchun xizmat qiladigan “Oʻzbek xalq teatrini tuzmoq kerak” deb qatʼiy fikr bildirgan edi Sanjar Siddiq. Shundan soʻng milliy asarlar yaratish masalasi keskin qoʻyildi va 1924 yil Moskvada tashkil etilgan oʻzbek bilim yurti qoshida alohida studiya ochilib, unga rus teatr maktabida tahsil olayotgan oʻzbekistonlik talabalar jalb etilgan edi. Koʻp oʻtmay oʻzbek milliy teatr sanʼatini yanada rivojlantirish maqsadida studiyaga Toshkent, Buxoro va Fargʻonalik yosh yigit-qizlar jalb etiladi. Studiyada “Yana uylanaman” asari sahnalashtirildi.

Asarni Choʻlpon Yusufjon qiziqning “Yana uylanaman!” degan hikoyasi asosida Meyerxold teatri aktyori L.Sverdlinning iltimosiga koʻra pyesa holatiga keltirib beradi (Moskva shahrida 1927 yil aprel oyida namoyish etilgan bu asar ham tomoshabinlar va mutaxassislarning birday yuqori bahosini oladi). Oʻzbek turmushidan olingan voqea, oʻzbek milliy cholgʻular navosi va iqtidorli yosh oʻzbek aktyorlarning sanʼatkorona ijrosi asosida koʻpchilikka yoqadi. Choʻlpon asar haqida oʻquvchilarga maʼlumot berar ekan, kamtarlik bilan mirza (yozuvchi) Yusufjon aka, tuzmasi Sverdlin, rejissyor-koʻmakchi Lutfulla, cholgʻu rahbari Mironov, suratchi Yefimenko deb, ularga rahmat aytadi. Choʻlpon yosh sanʼatkorlarni fidokorlikka, kelgusida yanada yuksak saviyadagi asarlar yaratishga chaqiradi va albatta, shundagina ularning asarlari oʻz tomoshabinlarini topishi va ularning haqiqiy olqishini olishiga ishonch bildiradi.

⁴ Mironov N. nomi ostida “Oʻzbek musiqasi”, “Oʻzbek va boshqa Sharq xalqlari musiqa madaniyati haqida”, “Buxoro, Fargʻona va Xiva qoʻshiqlari”

1927 yil olingan “Ravot qashqirlari” filmi xalq tomonidan iliq kutib olingan edi. Unda Sulaymon Xo‘jayev ham maslahatchi, ham aktyor bo‘lib qatnashdi⁵. Filmning muvaffaqiyatini ta‘minlagan asosiy omillardan biri uning musiqasi bo‘ldi. Filmga musiqa bastalagan V.Uspenskiy unda ko‘plab o‘zbek folklor namunalari va 6 ta xalq qo‘shig‘i (“Qari navo”, “Sobirjon”, “Ilg‘or”, “Nasrulloiy”, “Zarkokil”, “Dilrabo”) ohanglaridan foydalangan edi.⁶

Milliy opera yaratish ko‘pgina milliy ziyolilarning, jumladan, Behbudiydan so‘ng Turkistonlik taraqqiyparvar ziyolilarning yetakchilaridan biri bo‘lgan Fitratning ulkan orzusi edi. 1920 yildayoq u G‘ulom Zafariyning “Halima” asari haqida gazetada taqriz yozib, uni o‘zbek “operasi”ning tug‘ilishi bilan qutlagan edi. 1935 yilda Fitrat Muxtor Ashrafiyga “Vose qo‘zg‘aloni” nomli libretto yozib bergandi⁷. Birinchi o‘zbek operasini yozishni M.Ashrafiy 1934-1935 yillarda Fitratning syujeti asosida boshlab yuborgan edi. Fitrat qatag‘on etilganidan so‘nguning “To‘lqin”i ilk o‘zbek operasi “Bo‘ron” uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. 1938 yil S.Vasilenko O‘zbekiston hukumati tomonidan taklif olgach birinchi o‘zbek operasini yaratish ustida ish boshladi, biroq, u na o‘zbek tilini, na o‘zbek xalq musiqasini bilar edi. M.Ashrafiy asosan Toshkentda musiqani yozib, vaqti-vaqti bilan Moskvaga borib maslahatlashib turgan.

Bunda jadidchilik harakatining roli nihoyatda katta bo‘ldi. “Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma‘naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy qoloqlikka, Mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi.”⁸

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek milliy musiqa merosini o‘rganish va uni avlodlarga bezavol yetkazishda jadid ziyolilari katta ishlarni amalga oshirganlar. Abdurauf Fitrat, G‘ulom Zafariy, Rahmon Bekjonov, Sadridin Ayniy, Ilhom Inomjonov kabi jadid taraqqiyparvarlarning fidokorona xizmatlari evaziga o‘zbek musiqiy merosi ilk bor ilmiy tadqiq va targ‘ib etish ishlari yo‘lga qo‘yildi. O‘tgan asrning boshlarida o‘zbek musiqa madaniyati darg‘alari Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Hoji Abdulaziz Abdurasulovlarning ijrolaridagi qo‘shiqlar yevropalik Sharq musiqasi shinavandalarigacha yetib bordi. Tarixan qisqa davrda o‘zbek sahna san‘ati ham xalqimizning qadimiy musiqiy merosiga yo‘g‘rilgan holda katta yutuqlarni qo‘lga kiritildi. Jumladan, o‘lkada o‘zbek musiqali teatri, milliy opera va milliy kino san‘atlarining paydo bo‘lishini ham Turkistonlik jadid taraqqiyparvarlarining istaklari hamda intilishlarining mevasi sifatida dunyoga kelgan edi, deyish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baxtiyor HASANOV “JADID MA’RIFATPARVARLIK HARAKATINING G‘OYaVIY ASOSLARI” “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent 2016.3-b
2. Yazdanov U. O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini rivojlantirish masalalari.- T.: Nishon-noshir, 2015.- B.3.
3. B.Xasanov. N.Karimov. Jadid ma‘rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. “Toshkent islom universiteti” Toshkent 2016.

⁵ Zaynobiddin Abdurashidov. Kelajakni bashorat qilgan jadidlar “Ishonch” gazetasi 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son.

⁶ Qosimov B. "Milliy uyg‘onish", T., "Sharq".

⁷ Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjumon.uz, 2019.

⁸ Choriev A., Choriev S. Renessans davri Yevropa falsafasi.- T.: Tafakkur qanoti, 2015.

4. Mironov N. nomi ostida “O‘zbek musiqasi”, “O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari musiqa madaniyati haqida”, “Buxoro, Farg‘ona va Xiva qo‘shiqdari”.
5. Zaynobiddin Abdurashidov. Kelajakni bashorat qilgan jadidlar “Ishonch” gazetasi 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son.
6. Qosimov B. "Milliy uyg‘onish", T., "Sharq".
7. Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjimon.uz, 2019.
8. Choriev A., Choriev S. Renessans davri Yevropa falsafasi.- T.: Tafakkur qanoti, 2015.